O‘ZBEKISTONDA PEDAGOGIKA FANINING DOLZARB MASALALARI

O‘tayev A.Yo.
Toshkent iqtisodiyot va padagogika instituti,
Pedagogika fakulteti (PhD)

Tayanch so‘zlar: O‘zbekiston, taraqqiyot, stranegiyasi, pedagogika, fan, ta’lim, tarbiya, dastur ,muammo, nazariya, amaliyot, sifat, yondoshuv, malaka.

Ключевые слова: Узбекистан, развитие, стратегия, педагогика, наука, образование, воспитание, программа, теория, проблема, подход, практика, качество, подход, квалификация.

Key words: Uzbekistan, development, strategy, pedagogy, science, education, training, program, theory, problem, theory, practice, quality, approach, qualification.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi qabul qilinib, mamlakatda 2022-2026 yillarda sifatli ta’limga erishish vazifalari amalga oshirilmoqda[1]. Sifatli ta’lim konsepsiyasiga ko‘ra, bilim berish va o‘zlashtirish jarayoni butunlay yangi ko‘rsatgichlarni ifodalashi kerak. Shu jihatda mamlakatda Pedagogika faninng olidida zamonaviy vazifalar va muammolarni hal etish tarkib topdi. Bunda salkam yuz yillik ilmiy tarixga ega bo‘lgan Pedagogika fani islohotlar va yangilanishlar jarayonida turibdi. Chunki bu fan birinchidan, mamlakatda sifatli ta’limga erishishning pedagogik nazariyasi, didaktikasi va metodikasini taqdim etishi kerak; ikkinchidan, fanning o‘zida yangilanish jarayoni kechishi taqoza etilmoqda. Shu sababli o‘zbek Pedagogika fanining dolzarb masalalari pedagogik olimlar va maliyotchi pedagoglar tomonidan idrok etilishi lozim bo‘ladi. Bu o‘rinda e’tiboringizni ana shu masalaning eng muhim jihatlari tahliliga tortamiz.

1. Halqaro ta’lim dasturlarini joriy etish zaruriyati. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkaamsining 2018 yil 21 fevraldagi 197-son Qarori bilan mamlakat ta’lim tizimiga TIMSS, PISA, PRLS va STEAM halqaro baholash dasturlari joriy etilmoqda. Shu jihatdan o‘zbek Pedagogika fani quyidagi muammodarning ilmiy-metodik yechimlarini ishlab qichishi dolzarb bo‘lib turibdi:

a) halqaro dasturlarni milliy ta'lim tizimiga joriy etish metodikasini ishlab chiqish;

b) milliy ta'lim dasturlarini halqaro dasturlarga moslashtirish mexanizmlarini yaratish;

v) ta'lim jarayonini halqaro dasturlar asosida tashkil etishning didaktik asoslarini shakllantirish;

g) ilmiy tadqiqotchilik yo'nalishlarida halqaro dasturlar bo'yicha nazariy va metodik tadqiqotlvarni amalga oshirish mavzularini belgilash;

d) Pedagogik fanining o'quv dasturlarini halqaro davturlarga moslashtirish texnologiyaisni ishlab chiqish.

E'tibor berilsa, bu masalalar nazariy, metodik va amaliy pedagogik tadqiqotchilikni taqoza etadi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida iqtidorli talabalarni pedagogik ilimiy tadqiqotchilikka keng jalb etish zaruriyat bo'lib turibdi. Buning uchun mamlakat oliy pedagogik ta'im muassasalarida faoliyat yuritayotgan "Talabalar akademiyasi", "Kelajak o'qituvchisi" va "Pedagog" kabi ilmiy – tadqiqot – loboratoriya tuzilmalari imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi [2]. Talabalarning bu tuzulmalari ularning tashabbuslari asosida ilmiy tadqiqotchidik ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Shu jihatdan talabalarning o'z tashabbuslariga ko'ra pedagogik ilmiy tadqiqotchilikni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga egadir. Bu borada an'ana bo'lib kelayotgan talabalarga mavzular taqdim etish tajribasini takomillashtirish va ularni pedagogik ilmiy muammolarga yo'naltirish kerak bo'ladi. Shu ma'noda Ustoz-shogird an'anasini yangilash va unda Ustozning faqat yo'naltirish vazifasini belgilab qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bularning barchasi halqaro dasturlar bo'yicha ilmiy ishlanmalar, metodikalar va texnologiyalarni yaratishni Pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

2.O'quv adabiyotlarini yangilash ehtiyoji. O'zbek Pedagogika fanida yuz yildan buyon an'anaviy shakllarda o'quv qo'llanmalar, darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar va o'quv-uslubiy majmualar yaratish hamda ta'lim jarayonida foydalanish amalga oshirilib kelmoqda. Biroq, mamlakatning innovaesion rivojlanish konsepsiyasi qabul qilinib, amaliyotga joriy etila boshlagach Pedagogika fanida ham o'quv adabiyotlarini yangilash, metodikani takomillashtirish va o'quv adabiyotlarining zamonaviy turlarini ishlab chiqish ehtiyoji paydo bo'ldi. Bu masalalar juda kamchilik pedagogik olimlar tomonidan idrok etilmoqda. Ayni paytda, oliy pedagogik ta'lim jarayoni innovatsion xarakterdpgi o'quv adabiyotlarni yaratishni tabiiy ravishda taqoza

emoqda. Shu jihatdan o‘zbek Pedagogika fani oldida quyidagalarni amalga oshirish dolzarb bo‘lib turibdi:

a) elektron va djayjest kabi zamonaviy hamda yangi turdagi o‘quv adabiyotlarini yaratish;

b) o‘quv adabiyotlarining dasturlari, mavzulari, ma’lumotlari va ifoda metodikasini yangilash;

v) Pedagogika fanining milliy va halqaro ta’lim dasturlarini uyg‘unlashtirgan yangi avlod darsliklarini ishlab chiqish;

g) har bir o‘quv yili boshida Pedagogika fanining yangilangan va takomillashtirilgan o‘quv adabiyotlarini qo‘llash amaliyotiga o‘tish;

ye) mamlakatda va xorijiy oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tajribali pedagoglarni Pedagogika fani bo‘yicha o‘quv adabiyotlarini yaratish ishiga jalb qilish.

Diqqat qilinsa, bu masalalar Pedagogika fani tomonidan tezkor ravishda hal etilishini taqoza etadi. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilarning o‘quv adabiyotlarini yaratish ishlarini muafiqlashtirish maqsadga uvofiq bo‘ladi. Buningg uchun mamlaka hudularidagi oliy pedagogik ta’lim muassasalarining o‘quv adabiyotlarini yaratish bo‘yicha faoliyatini birlashtirish va yagonalashtirish maqsadga uvofiq bo‘ladi. Shu ma’noda mamlakatda yangi avlod o‘quv adabiyotlari yaratish bo‘yicha pedagogik, ijtimoiy va metodik imkoniyatlar mavjudligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Chunki mamlakat oliy pedagogik ta’lim muassasalari zamonaviy binolar, yuksak darajadagi axborot-resurs manbalari, Internet jahon axborot tarog‘i, tadqiqotchilik tajribasi kabi keng imkoniyatlarga ega. Bunda faqat yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratishni tashkiliy va moliyaviy jihatdan yo‘lga qo‘yish taqoza etiladi. Shu ma’noda zamonaviy keng e’tirof etilgan pedagogik o‘quv adabiyotlarini yaratgan pedagogik kadrlarga ilmiy darajalar va unvonlar berish amaliyotini yo‘lga qo‘yishning vaqti kelganligini eslatib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3. Yangi ta’lim turlarining metodikasini yaratish. Dunyoning barcha mamlakatlarida kuzatilganidek, O‘zbekistonda ham COVID-19 kabi pandemiyaning murakkab sharoiti ta’limning noar’anaviy va yangi turlarini amaliyotga joriy etishni taqoza etdi. Shu jihatdan ko‘p asrlik an’anaga ega o‘zbek Pedagogika fani ijtimoiy murakkabsharoitlarda ta’lim va tarbiya berish sinovidvn larzalar bilan o‘tganligini eslatib o‘tish joiz. Bunda ilg‘or o‘qituvchilarning individual tajrialari qutqaruvchi omil bo‘lganligini alog‘ida ta’kidlash lozim. Shu ma’noda bugungi kunda o‘zbek Pedagogika fani oldida quyidagi vazifalar o‘tkir bo‘lib turibdi:

a) masofaviy ta'lim, mustaqil ta'lim kabi ta'limning yangi turlari bo'yicha didaktik asoslar, metodik omillar va texnologiya majmualarini yaratish;

b) masofaviy ta'lim va mustaqil ta'lim sharoitida shaxsni tatbiyalash nazariyasi, metodtkasi va texnologiyasini ishlab chiqish;

v) ink4hlyuziv ta'limning yangi avlod o'quv adabiyotlarinm yaratish va unda elektron nusxalarining amaliyotini yo'lga qo'yish;

g) katta yoshlar ta'limi bo'yicha yangi o'quv adabiyotlarini yaratish hamda ulardakatta yoshlilar Pedagogikasi qonuniyatlarini aks ettirish;

ye) dual ta'lim nazariyasi, didaktikasi va metodikasini ishlab chiqish.

Diqqat qilinsa, bu masalalarni hal etish o'zbek Pedagogika fanini yangilaydi va uning asoslarini boyitadi. Bir so'z bilan aytganda, mazkur fan rivojlanishning bosh yo'lida turibdi. Buning uchun eng zaruriy va birlamchi muammolarni hal etish ishidan boshlash muhim aahmiyatga egadir[3].

4. Professional pedagog kadrlar tayyorlash zaruriyati. Mamlakatda iqtidorli va professional pedagogik kadrlar tayyorlash masalasi ta'lim siyosatining ustuvor masalalardan biri sifatida belgilangan. Bunda asossiy e'tibor ta'lim tizimini oliy ma'lumotli professional pedagogik kadrlar bilan qamrab olishga varatilmoqda. Shu sababli mamlakatda yigirmaga yaqin oliy pedagogik ta'lim muassasi faoliyat yuritmoqda va ularda kunduzgu, kechki, sirqi hamda mustaqil ta'lim turlari amal qilmoqda. Ayni paytda, proqessional pedagog kadrlar tayyorlash maasalasi dolzarbligicha qolmoqda. Shu jihatdan o'zbek Pedagogika fani oldida quyidagilarni hal etish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz:

a) o'quvchilar orasidan iqtidorli bolalarni pedagogika kasbiga yo'naltirish va tanlab olish metodikasini ishlab chiqish;

b) pedagogik kadrlar tayyorlashning an'anaviy ta'lim jarayonini yangilash va bunda amaliyotga joriy etilayotga 4+2 tizimi (haftaning 4 kunida oliy pedagogik ta'lim muassasasida nazariy bilim olish va 2 kunini ta'lim muassasasalarida amaliyot o'tash)ning metodikasini ishlab chiqish hamda uni texnologik jihatdan takomillashtirib borish;

v) iqtidorli talabalarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini yaratish;

g) pedagogik ta'lim jarayoniga xorijiy tajribalarini tadbiq etishning pedagogik assolarini iglab chiqish;

ye) milliy pedagogik ta'lim tajribasini ommalashtirish.

E'tibor berilsa, mazkur masalalarni hal etish o'zbek Pedagogika fanining ahamiyatini yuksaltiradi va mamlakatda professional pedagogik kadrlar tayyorlash jarayoni kuchayadi. Shu sababli mazkur masalalar bo'yicha pedagoglar uyushmasi faoliyatini tashkil etish maqsadga muofiq bo'ladi.

O‘zbek Pedagogika fanining mazkur dolzarb masalalari zamonaviyligi va tezkor ravishda hal etilishi xuussiyatlariga egaligi bilan diqqatni tortadi. Bunda iqtidorli yoshlar va pedagogik kadrlarning ilmiy-amaliy hamkorligini kuchaytirish taqoza etiladi.

Kezi kelganda shuni ta’kidlash lozimki, o‘zbek Pedagogika fani nihoyatda boy pedagogik me’ros va tajribaga ega. Misol uchun, birgina o‘rta asrlarda yaratilgan pedagogik me’ros olitn fond bo‘lib, pedagogik ilmiy tadqiqotchilikning poydevori hisoblanadi[4]. Chunki bu me’rosda pedagogik ilmiy tadqiqoqchilikning nazariyasi, metodologiyasi va amaliyoti uchun muhim qarashlar, yondoshuvlar, ma’lumotlar va metodikalar o‘z ifodasini topgan. Shu jihatdan pedagogik me’rosimiz bugungi kunda o‘zbek Pedagogika fani oldida turgan dolzarb masalalarni hal etishda tayanch vazifani bajaradi.

Shunday qilib Pedagogika fanimizning bugungi dolzarb masalalari mazkur fanning yangilanish va takomillashi uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli mazkur masalalar idro etilishi va ularning yechimini topishga kirishilishi dolzarb bo‘lib turibdi.

Adabiyotlar:

1. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.//www.gogle.uz.
2. O‘tayev A.Y.Bo‘lajak o‘qituvchilarda siyosiy tarbiya ko‘nikmasini rivojlantirishning pedagogik asolari.-Toshkent, 2023
3. Mardonov Sh.Q. Pedagogika fanidan elektor-didaktik ta’minotni ishlab chiqish texnologiyasi.-Toshkent, 2021
4. O‘zbek pedagogikasi ensiklopediyasi. 2 Tom.-Toshkent, 2018

РЕЗЮМЕ

Maqola O‘zbekistonda Pedagogika fanining dolzab masalalari to‘g‘risida fikr yuritilgan va ushbu masalaga doir muallifning individual yondoshuvlari bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ

В статье размышляются важные вопросы педагогики Узбекистана и описывается индивидуальный подход автора к этому вопросу.

SUMMARY

The article reflects on the important issues of Pedagogy in Uzbekistan and describes the author’s individual approach to this issue.